

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 148 (1747), 2026-yil 23-iyul, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



TOSHKENT VILOYATI – ULKAN BUNYODKORLIK, RAQAMLI TARAQQIYOT, INNOVATSIYALAR VA INSON QADRI UYG‘UNLASHGAN MANZIL

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 22-iyul kuni Toshkent viloyatining O‘rta Chirchiq tumani va Nurafshon shahriga tashrif buyurib, hududda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi, yirik qurilish loyihalariga start berdi.



Yo‘l manzillarni bir-biri bilan bog‘laydi. Dillarni yaqinlashtirib, maqsadlarni birlashtiradi. Shu bois, xalqimiz azaldan yo‘lni aziz sanab, unga o‘zgacha hurmat ruhida qaragan. “Yo‘l bilmasang, yo‘lchiga boq”, “Yo‘li kengning fe‘li keng” kabi naqlar ana shunday qarashlar hosilasidir.

Fe‘li keng inson murakkab vaziyatlarni vazminlik va sabot ila yengib o‘tgan bo‘lsin kengayadi. Xalqimiz matonati va mehnatkashligi bilan sinovlardan mardona o‘tib, yangi O‘zbekistonni bunyod etish, Uchinchi Uyg‘onish davriga asos solishdek ezuq yo‘ldan bormoqda.

Prezidentimizning Toshkent viloyatiga tashrifi ana shunday katta ramziy ma‘no kasb etib, mamlakat iqtisodiy quvvatini yanada oshirishga xizmat qiladigan bunyodkorlik ishlari bilan tanishishdan boshlandi.

Dastlabki manzilda mamlakatimiz yetakchisi Toshkent — Samarqand pulli muqobil avtomobil yo‘li qurilishiga tamal toshi qo‘ydi. Mazkur loyiha yurtimiz iqtisodiy qudrati va transport-logistika salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Negaki bu yo‘l nafaqat manzillarni yaqinlashtiradi, balki ko‘plab hududlarda ish o‘rinlari yaratib, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga yechim beradi. Prezidentimiz yangi yo‘lning ahamiyati haqida so‘z yuritir ekan, “Bugun bu sohada tom ma‘noda yangi davr boshlanmoqda, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Xalqimiz uchun taraqqiyot va farovonlik timsoli bo‘lib xizmat qiladigan ushbu yirik loyihaning boshlanishi barchamizga muborak bo‘lsin”, dedi.

Ha, ushbu muqobil yo‘l tom ma‘noda taraqqiyotimizning ramzidir. Bir vaqlar ajdodlarimiz yurgan Buyuk ipak yo‘li yangi O‘zbekistonda zamonaviy qiyofa

kasb etib, hayotimizga yanada charog‘onlik bag‘ishlamoqda. Buni keyingi yillardagi iqtisodiy o‘shish tahlillaridan ham ko‘rish mumkin. Xususan, so‘nggi yillarda iqtisodiyotimiz 3 karra o‘sd, 2030-yilga borib, uning hajmini 240 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. Bu, tabiiyki, yo‘l-transport va logistika xizmatlariga talab ortishini anglatadi. Yana bir muhim jihat. O‘zbekiston hududidan xalqaro ahamiyatga ega 4 ming kilometr tranzit yo‘l o‘tgan. Keyingi yillardagi islohotlar tufayli tadbirkorlikka keng yo‘l ochilib, qo‘shni davlatlar bilan aloqalar yaxshilandi. Natijada xorijiy sarmoyadorlar oqimi keskin ko‘payib, eksport salohiyati yuksaldi. Bu tabiiy ravishda yo‘llarga ehtiyojni oshiradi. Shu bois, bugun ushbu yo‘llarning 30 foizi to‘liq quvvatda, yana 25 foizi ortiqcha yuklama bilan ishlamoqda.

Kelgusida mamlakatimiz Tinch okeanidan Yevropagacha bo‘lgan eng qisqa quruqlik yo‘lagining asosiy bo‘g‘iniga aylanishi kutilmoqda. “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston va Transafg‘on” temir yo‘llari ishga tushishi ana shunday sharoitni vujudga keltiradi. Pokiston portlari orqali Hind okeani va Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish uchun ham yangi imkoniyatlar ochiladi.

Albatta, bunday yirik loyihalar yetti bor o‘lchanib, bir marta kesiladigan aniq hisob-kitoblarga tayanib bajariladi. Mo‘ljaldagi hisobga ko‘ra, loyiha yiliga qo‘shimcha 15-20 million tonna tranzit yukni qabul qilish imkonini beradi. Bu 400-600 million dollar daromad degani. Qolaversa, logistika markazlari va terminallar uchun 3 milliard dollar investitsiya o‘zlashtirilishi hamda 50 mingga barqaror ish o‘rni yaratilishi kutilmoqda.

Qurilishiga tamal toshi qo‘yilgan Toshkent — Samarqand yangi avtomobil yo‘li ushbu strategik dasturning muhim qismidir. Qolaversa, 2030-yilgacha Andijonni qo‘ng‘iroq bilan, Termizni Toshkent bilan bog‘lovchi 4 ming kilometr xalqaro yo‘l zamon talabiga mos ravishda tranzit yo‘laklarga aylantiriladi.

Yanada e‘tiborlisi, loyiha zamonaviy. Ya‘ni u eng yuqori toifadagi ilk zamonaviy avtomagistral. Qiymati qariyb 2,2 milliard dollar bo‘lgan mazkur olti tasmali yo‘lning umumiy uzunligi 282 kilometrni tashkil etadi. U Toshkent, Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlaridagi aholisi 2 milliiondan ziyod bo‘lgan 13 ta tuman orqali o‘tadi. Loyihadan 92 ta ko‘priq, 28 ta yo‘l o‘tkazgich, tunnel tipidagi 60 ta o‘tish joyi, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun yer osti yo‘laklari va suv o‘tkazish inshootlari ham o‘rin olgan. Yo‘l qoplamasi og‘ir va yuqori tezlikda harakatlanadigan transport vositalari qatnoviga chidamli monolit betondan barpo etiladi. Tekis hududlarda harakat tezligi soatiga 150 kilometr gacha bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Muhimi, yuk tashish tannarxi 19-24 foiz pasayadi. Bu, ayniqsa, tez buziladigan mevasabzavot, go‘sh, sut va boshqa mahsulotlarni bozorlarga qisqa muddatda va sifatli yetkazish imkoniyatini kengaytiradi.

Yangi yo‘l Farg‘ona vodiysi va mamlakatimizning markaziy hududlarini janubiy hamda g‘arbiy viloyatlar bilan

bog‘lashda muhim o‘rin tutadi. Xalqaro transport yo‘laklari samaradorligini oshirib, O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi transport-logistika markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi. Jahon banki tahlillarida bunday infratuzilma loyihalariga kiritilgan har bir dollar iqtisodiyotga 5 barobargacha samara berishi keltiriladi. Yangi yo‘l Toshkent shahri, Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlari yalpi hududiy mahsulotining 3 foiz o‘shishiga turtki berishi kutilmoqda. Bular — iqtisodiy jihatlari.

Endi zarurati va xalqchilligiga to‘xtalsak. Avvalo, aytish kerakki, har qanday bunyodkorlik jarayoni odamlar hayotiga baribir o‘zgarish olib kiradi. U yo‘l va ko‘priq bo‘lsa, yanada a‘lo. Chunki yo‘l borgan joyda infratuzilma ham, albatta, paydo bo‘ladi. Yangi muqobil yo‘l bo‘yida logistika markazlari, omborlar, sanoat va agrosanoat korxonalari, savdo-servis, mehmonxona va turizm obyektlari barpo etiladi. Bu qo‘shimcha imkoniyat, ish va daromad degani. Daromadning odamlar hayotida qanchalik muhimligini esa tushuntirishning hojati yo‘q. Buni Prezidentimiz ham alohida ta‘kidladi.

Ushbu loyiha ishga tushganidan so‘ng uning afzalligini har bir yurtdoshimiz o‘z hayotida, albatta, his qiladi. Toshkentdan Samarqandga yetib borish vaqti hozirgi 5 soatdan 2,5 soatga qisqaradi, — dedi davlatimiz rahbari.

80 mingtagacha transport vositasini o‘tkazish quvvatiga ega bo‘ladi. Tirbandlik va bir maromda harakatlanish energiya sarfi, amortizatsiya va texnik xarajatlarni kamaytiradi.

Avtomagistral Yevropa, Turkiya, Xitoy va boshqa davlatlarning ilg‘or tajribalari asosida loyihalashtirilgan. Birinchi bosqichda yo‘l xitoylik hamkorlar bilan EPC modeli asosida quriladi, keyinchalik uni boshqarish, saqlash va ekspluatatsiya qilishning zamonaviy mexanizmlari joriy etiladi. Loyiha xalqaro sifat, xavfsizlik va ekologik standartlar asosida amalga oshirilib, 2030-yilda foydalanishga topshiriladi.

Davlatimiz rahbari xitoylik hamkorlar, mahalliy va xorijiy mutaxassislar, muhandislar, loyihachilar va quvurchilarga muvaffaqiyat tilab, O‘zbekiston tarixida

ilk bor “yashil” va innovatsion yo‘l barpo etilayotganini alohida ta‘kidladi.

Shundan so‘ng Prezidentimiz Toshkent — Samarqand yangi avtomobil yo‘li poydevoriga kapsula qo‘yib, uning qurilishini boshlab berdi.

Toshkent viloyati cheksiz imkoniyatlar hududi. Uning tabiati, hududiy joylashuvi kabi bir qancha omillar viloyatning strategik ahamiyatini kuchaytirib, rivojlanish uchun keng shart-sharoit yaratadi. Aytish kerakki, shu paytgacha viloyatning imkoniyatlari to‘liq ishga solinmagan edi. Hatto alohida ma‘muriy markazi yo‘q edi. Aholi esa bitta ishni bitirish uchun Toshkent shahriga ham, o‘zi yashaydigan joydan viloyatning mutlaqo ters tomonidagi yana bir idoraga ham borishga majbur edi. Negaki davlat idoralari, tashkilotlar va sog‘liqni saqlash muassasalari har joyga sochilib ketgan edi. O‘tgan qisqa davrda Toshkent viloyati butunlay o‘zgacha qiyofa kasb etdi. Nurafshon shahri viloyatning ma‘muriy markazi sifatida yangidan qad rostladi. Bu xususda hali yana to‘xtalamiz. Demochimizki, Toshkent shahridan Nurafshon shahriga eltidigan yo‘lda ham qatnov keskin ko‘paydi. Tabiiyki, yo‘l infratuzilmasini yaxshilash masalasi kun tartibiga chiqqandi.

Tashrifning navbatdagi manzilida Prezidentimiz A-373 va Toshkent katta halqa yo‘llari kesishmasida barpo etilgan yangi yo‘l o‘tkazgichni ko‘zdan kechirdi. Mazkur inshoot katta chorrahadagi tirbandlikka barham berib, Toshkent shahri bilan Nurafshon o‘rtasidagi qatnov vaqtini 10-15 daqiqaga qisqartiradi. Yer osti va usti qatnov qismlari, yo‘l o‘tkazgichning yon tomonlaridagi aylanna harakat yo‘lovchilar xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiymati 240 milliard so‘m bo‘lgan mazkur yo‘l o‘tkazgich Bektemir va O‘rta Chirchiq tumanlari tutashgan hududdagi 14,1 gektar maydonda barpo etilgan. Obyekt tarkibida uzunligi 66 metr, kengligi 46 metr bo‘lgan ko‘priq bor. Bundan tashqari, 450 metrli yer osti avtomobil yo‘li, ikkita ortga qayrilish yo‘lagi qurilgan. Piyodalar xavfsiz va to‘xtalishsiz harakat qilishi uchun to‘rtta yer osti o‘tish yo‘lagi va 950 metrli aylana halqa yo‘l barpo etildi.

Davomi 2-betda



Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

MUSTAQILLIK VA YETUKLIK FALSAFASI

Yangi ming yillik ishtiyoqi

Bolalik va yoshlik davrlarimni eslasam, xayolimda beixtiyor bir sehrli raqam — 2000-yil gavdalanadi. O‘shanda butun dunyo yangi ming yillikni qarshi olayotgan bir paytda men o‘z hayotimning muhim pallasi — 35 yoshga to‘lishni orziqib kutgan edim.

Tasavvurimda 35 yosh shunchaki oddiy bir raqam emas, balki insoniy yetuklik, hayot sinovlariga bardosh bera oladigan chidamlilik va muayyan tajriba to‘plab, yuqori natijalarga erishiladigan kamolot marra edi.

Taqdir menga xuddi shunday mazmunli hayotni tuhfa etdi.

35 yoshimni qarshilaganimda, men nafaqat katta bir oilaning boshlig‘i, balki

o‘zim tanlagan kasb va sohada o‘n yildan ortiq vaqt mehnat qilgan, kelajakdagi natijalar uchun mustahkam poydevor yaratgan mutaxassis sifatida shakllandim deb hisoblayman.

Bu davr menga mas‘uliyatni his qilishni va har bir qadamni chuqur o‘ylab bosishni o‘rgatdi.

Davomi 3-betda

BUGUNGI IMKONIYAT — ERTANGI QUDRAT MANBAI

Dunyoda raqobat tubdan o‘zgarmoqda. Bugun mamlakatlarning ustunligi faqat ishlab chiqarish hajmi yoki moliyaviy barqarorlik bilan emas, mavjud salohiyatni to‘g‘ri yo‘naltirish, o‘zgarishlarga moslashish va yaratilgan imkoniyatlarni yuqori natijaga aylantirish olish qobiliyati bilan belgilanmoqda.

Iqtisodiyotda ham asosiy masala faqat o‘shish sur‘atlarini qayd etish bilan cheklanmaydi. Muhimi, erishilgan natijalar qanchalik yangi imkoniyatlar yaratayotgani, insonlar hayotiga qanday ta‘sir ko‘rsatayotgani va mamlakatning kelgusi taraqqiyoti uchun qay darajada mustahkam asos bo‘layotganidir. Chunki har bir iqtisodiy o‘shish zamirida yangi ish o‘rinlari, faol tadbirkorlik, aholi daromadlari va jamiyatning ertangi kunga bo‘lgan ishonchi mujassam.



Munosabat

Mamlakatimiz iqtisodiyoti yil boshidan buyon 8,5 foiz o‘sd. Ushbu natija 21-iyul kuni davlatimiz rahbari raisligida hudud va tarmoqlarda o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash bo‘yicha joriy yilning birinchi yarmida erishilgan natijalar va yil yakuniga qadar amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida ta‘kidlandi. Bunda sanoat, xizmatlar, qurilish va qishloq xo‘jaligidagi o‘shish sur‘atlari, investitsiyalar hajmining ortishi hamda eksport ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi iqtisodiyotdagi faol jarayonlarni ifoda etmoqda. Ushbu natijalar mamlakatda yaratilayotgan imkoniyatlar va amalga oshirilayotgan ishlarning samarasini ko‘rsatadi.

Erishilgan o‘shishni yangi sifat darajasiga olib chiqish muhim masaladir. Aholi soni 40 million bo‘lgan mehnat bozorida yangi talablar shakllanayotgan sharoitda yuqori iqtisodiy sur‘atlarni saqlash, ularni har bir inson hayotida seziladigan natijaga yetkazish ustuvor vazifaga aylangan. Yig‘ilishda hududlar va tarmoqlardagi mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solish, yangi o‘shish nuqtalarini aniqlash, boshqaruv samaradorligini oshirish orqali barqaror taraqqiyotni ta‘minlash vazifalari belgilab berildi.

Davomi 4-betda

2026-yil 23-iyul, 148-son

TOSHKENT VILOYATI – ULKAN BUNYODKORLIK, RAQAMLI TARAQQIYOT, INNOVATSIYALAR VA INSON QADRI UYG‘UNLASHGAN MANZIL

Boshlanishi 1-betda

Hududda aholi yashash punktlari, savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalari bor. Shu bois, 9,5 kilometr piyoda va veloyoy‘laklar, jamoat transporti uchun 8 ta bekat hamda 240 ta tashqi yoritish chirog‘i, qolaversa, 6 kilometr yo‘l to‘siqlari barpo etildi.

Yangi obyekt qurilishi boshlanganidayoq aholi quvonchini izhor qila boshlagan edi. Negaki yo‘l o‘tkazgich sabab yo‘lning kunlik o‘tkazuvchanlik quvvati bir necha barobar oshib, 130 mingta avtotransport vositasiga yetadi. Ravon yo‘l poytaxt va Toshkent viloyati o‘rtasidagi transport qatnovini yanada yaxshilaydi. Yo‘l qancha oson bo‘lsa, yo‘lovchi kayfiyati yuqori, ishlar unumi shuncha samarali bo‘ladi. Ayni omillar ijtimoiy birdamlik, iqtisodiy taraqqiyot degani.

Prezidentimizga loyihaning texnik yechimlari, transport oqimini boshqarish imkoniyatlari hamda kelgusida Toshkent — Nurafshon yo‘nalishida tezyurar avtobuslar tizimini (BRT) yo‘lga qo‘yish bo‘yicha rejalar haqida axborot berildi.

Yangi O‘zbekistonda yuritilayotgan siyosatning ustuvor yo‘nalishi inson qadri va manfaati har narsadan ustun ekanidadir. Keyingi yillarda ushbu tamoyil asosida qilinayotgan ishlar natijasi barcha jabha, har bir mahalla, xalqimiz hayotida aksini topmoqda.

O‘rta Chirchiq tumanidagi Qorasuv kanali bo‘yida kechayotgan jarayon fikrimiz tasdig‘i. Tashrif asnosida Prezidentimiz bu yerda bajarilayotgan bunyodkorlik ishlarini ko‘zdan kechirdi.

Kanal sohili katta imkoniyat maydoni. Hududdagi ayni jarayon esa ana shu imkoniyatni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Chunki bu ishlar tufayli, avvalo, hudud ahli dam olishi uchun qulaylik yaratiladi. Yangi iqtisodiy yo‘nalishlar yuzaga chiqadi. Qorasuv kanali sohili ana shunday maskanlardan biriga aylanmoqda.



Jarayonga o‘tgan yili kirishilgan edi. 32 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ hisobidan sohil bo‘yining 9 kilometr qismi obodonlashtiriladi. Loyiha ikki bosqichda amalga oshirilmoqda.

Dastlab Tinchlik va Qorasuv mahallalari oralig‘idagi 1,6 kilometr sohil qismi obodonlashtirildi. Piyodalar uchun zamonaviy yo‘laklar, favvora, vorkaut maydonchalar, akvapark hamda ko‘prik osti tunneli barpo etildi. Manzarali daraxtlar, qulay o‘rindiqlar, umumiy ovqatlanish va boshqa xizmat ko‘rsatish shoxobchalari aholi uchun ayni muddao bo‘ldi.

Keyingi bosqichda kanalning Qorasuv, Rovatak va Fayzobod mahallalaridan o‘tuvchi qismida ko‘ngilochar, dam olish va gastronomik ko‘chalar tashkil etiladi. Yangi savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari barpo etilishi hisobiga 150 ta yangi ish o‘rni yaratiladi.

“Inson qadri uchun” tamoyilining eng yuqori cho‘qqisi, shubhasiz, ijtimoiy himoya-niing jadallashuvidir. Yurtimizda keyingi yillarda shu yo‘nalishdagi ishlar yangi bosqichga kirdi. Ijtimoiy himoyaning yangi shakllari, ish uslublari yaratildi.

Davlatimiz rahbari tanishgan yana bir muhim loyiha — Ijtimoiy himoya milliy agentligining Nurafshon shahrida yangi barpo etilgan Ijtimoiy himoya majmuasi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Toshkent viloyatidagi ilk bu majmua ijtimoiy himoyaga muhojot odamlarga kompleks xizmatlarni bir joyda ko‘rsatadi. Bu yerda 5 ta muassasa — Ijtimoiy himoya milliy agentligining Toshkent viloyati boshqarmasi, hududiy Ijtimoiy inspeksiya, Nurafshon shahri “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi, tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi hamda hududiy ijtimoiy xizmatlar markazi joy olgan. Muassasada 100 ga yaqin xodim faoliyat yuritadi.

Shuningdek, hududiy ijtimoiy xizmatlar markazida fuqarolarning individual ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda nodavlat sektor imkoniyatlarini keng jalb etish orqali 5 turdagi ijtimoiy xizmat ko‘rsatilishi yo‘lga qo‘yilgan. Natijada uyida o‘tirib qolgan va nogironligi bo‘lgan shaxslar, o‘zgalar



parvarishiga muhojtar, nogironligi bo‘lgan bolalar jamiyatga integratsiya qilinadi.

Mamlakatimiz yetakchisi shu yerning o‘zida nogironligi bo‘lgan shaxslarni yangi standart va sun’iy intellekt yordamida tashxislash, Toshkent viloyati tajribasi asosida mahalladagi ijtimoiy xodimlarning yangicha ishlash mexanizmlari taqdimoti bilan tanishdi.

Prezidentimiz majmuada yaratilgan sharoitlarni ko‘zdan kechirib, aholining muhojot qatlamini qo‘llab-quvvatlash, jamiyatga munosib moslashishi hamda ijobiy ruhiyat bilan yashashiga ko‘maklashish siyosatimizning ustuvor vazifalaridan biri ekanini ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari Ijtimoiy himoya milliy agentligining Toshkent viloyatidagi “Inson” volontyorlar jamoasi bilan suhbatlashdi. Ularning loyihalari bilan tanishdi. Prezidentimiz majmua faoliyatini ma’qullab, mutasaddilarga respublika bo‘ylab shunga o‘xshash hududiy ijtimoiy xizmatlar markazlari sonini uch barobar oshirish topshirig‘ini berdi.

yaratilgan. Jumladan, universitetda 1585 o‘rinli o‘quv binosi, 805 o‘rinli talabalar turar joyi, zamonaviy sport majmualari, oshxona va axborot-resurs markazi bor. Ekologik barqarorlik tamoyillari asosida shakllantirilgan oliygohga “yashil kampus” maqomi berilgan.

Bu kabi zamonaviy shart-sharoitlar qariyb ming talabani xalqaro talabarga javob beradigan mutaxassis qilib tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Hozir oliygohda 2 ta fakultet va 4 ta kafedra faoliyat yuritmoqda. Ularda 8 ta bakalavriat va 2 ta magistratura yo‘nalishi bor.

Mazkur ta’lim maskanining akademik yutuqlari allaqachon ko‘zga tashlana boshlagan. Jumladan, universitet jamoasi xalqaro kiberxavfsizlik musobaqalari va Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi xakatonlarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritib kelyapti.

Universitetga tutash hududda Kelajak texnologiyalari markazi bunyod etiladi. Davlatimiz rahbari ushbu markaz qurilishiga tamol toshi qo‘yish marosimida ham ishtirok etdi.

Hozirgi dunyoda raqobat yillar va oylar bilan emas, balki daqiq va soniyalar bilan o‘lchanyapti. Bunday davrda raqamlashtirishni ortga surgan, sun’iy intellektni o‘zlashtirmagan va innovatsiyalarga sarmoya kiritmagan davlatlar global taraqqiyotga yetishib yura olmaydi.

— Hayotimizning barcha jabhalarini raqamlashtirish bilan jiddiy shug‘ullanmasdan turib, rivojlanish mumkin emas. Busiz kelajagimiz yo‘qligini barchamiz teran anglashimiz kerak, — dedi Prezidentimiz.



Yana bir quvonarli fakt. Joriy yilda venchur investitsiyalar hajmi 5 barobar ko‘payib, o‘shish sur‘ati bo‘yicha mamlakatimiz jahonda birinchi o‘ringa ko‘tarildi. Yangi O‘zbekistonning axborot texnologiyalari sohasidagi shu kabi natijalari xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e’tirof etilmoqda.

Masalan, milliy startap ekotizimi qariyb 4,5 milliard dollarga yetdi. Xalqaro bozorda juda murakkab global iqtisodiy jarayon kechayotganiga qaramay, yurtimizda



innovatsion g‘oyalarni rag‘batlantirish maqsadida mukofot jamg‘armasi 5 million dollar bo‘lgan Prezident startap tanloviga start berildi.

O‘zbekiston Sun’iy intellekt sohasida hamkorlik bo‘yicha jahon tashkiloti ta’sischaridan biri bo‘lib, bu boradagi global jarayonlarni shakllantirishda ishtirok etadigan davlatlar safidan joy oldi.

“**O**bod mahalla va qishloqlar, zamonaviy shaharsozlik loyihalari, ulkan sanoat korxonalari va “yashil” energiya manbalari ishga tushirilishi mamlakatimiz qiyofasini tubdan o‘zgartirdi.



Sadriddin SUYAROV,
jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Vatan bilan hamnafas

Bugun esa qalbimda butkul bo‘lakcha, ta’riflashga o‘jiz faxr va baxt tuyg‘usi jo‘sh urmoqda. Sababi men o‘z Vatanim bilan yana bir marta 35 yoshga to‘lyapman!

O‘zbekiston o‘z mustaqilligining 35 yillik to‘yini nishonlayotgan ushbu tarixiy davrda men kuch-quvvatga to‘lgan va xalqaro maydonda o‘z so‘ziga, salmoqli mavqega ega buyuk bir davlatning farzandi ekanimdan cheksiz faxrlanam.

Inson hayotidagi 35 yosh bilan davlat tarixidagi 35 yil bir-biriga naqadar uyg‘un va mushtarak ekanini har qadamma his qilish mumkin.

Davlatning 35 yillik dovoni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlar to‘liq shakllanib, dunyo hamjamiyatida o‘z mustaqil yo‘lini qat‘iy belgilab, munosib o‘rni erishib ulgurgan yetuklik davridir. Hayot saboqlari va so‘nggi o‘n yillikning tarixiy dovonlari

Hayotim va bosib o‘tgan yo‘limga nazar tashlar ekanman, bir muhim haqiqatni anglab yetaman: 35 yoshimda erishgan asosiy yutuqlarim va hayotiy muvaffaqiyatlarim poydevori aslida 25 yoshimdan keyin, ya‘ni universitet tahsilini yakunlab, katta hayotga dadil qadam qo‘yganimdan so‘ng yaratilgan.

O‘zbekistonimizning ham mustaqillik yillaridagi rivojlanish bosqichlariga nazar tashlasak, so‘nggi 10 yil davomida zabt etilgan dovonlar jonajon yurtimiz tarixida mutlaqo yangi sahifa ochganini ko‘ramiz.

Mamlakatimizning so‘nggi o‘n yillik rivojlanish dinamikasi tarix sahifalariga alohida

zarhal harflar bilan bitilmoqda. Bu davr mobaynida davlat boshqaruvidan tortib, oddiy fuqarolar hayotiga barcha sohalarida tub burilishlar zamoni bo‘ldi.

Vatanimiz “25 yoshi”dan keyin xuddi ikkinchi bor nafas olganday, yangi sur‘at va kuch bilan oldinga intildi.

Ulkan o‘zgarishlar va tizimli islohotlar to‘lqini

O‘zbekiston tarixida ro‘y berayotgan izchil va tizimli islohotlar bugun mevasini bermogda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasidagi yangilanishlar jarayoni xalq manfaatlarini ustuvor biluvchi chuqur transformatsiya ko‘rinishini kasb etdi.

Shu o‘rinda so‘nggi yillarda har bir yurtodoshimiz bevosita qatnashayotgan, samarali natijalarini kunlik hayotida his qilayotgan voqeikalarga yana bir bor e’tibor qaratishni istardim.

Ularining mazmun-mohiyati va ulkan ahamiyati bugun nafaqat mamlakatimizda, balki xorijda ham katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda.

Iqtisodiy erkinlik va liberallashtirish jarayoni ushbu yangilanish jarayonida alohida salmoqli o‘ringa ega. Milliy valyutaning erkin konvertatsiyasi, soliq tizimi soddalashtirilishi, tadbirkorlikka keng yo‘l ochilishi va boshqa inqilobiy o‘zgarishlar mamlakat iqtisodiyotini tubdan jonlantirdi.

Ijtimoiy himoya va inson qadri tushunchalari chuqur va amaliy mazmun kasb etdi. Ehtiyoj-mand qatlam vakillarini qo‘llab-quvvatlash, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini zamon talablari darajasida isloh qilish davlat siyosati markaziga ko‘tarildi.

Obod mahalla va qishloqlar, zamonaviy shaharsozlik loyihalari, ulkan sanoat korxonalari va “yashil” energiya manbalari ishga tushirilishi mamlakatimiz qiyofasini tubdan o‘zgartirdi.

Xorijlik qalam ahli vakillarining e’tirofi

Mamlakatimizning xorijdagi elchixonalari xodimlari mezbom davlatning O‘zbekistondagi

yangilanish va izchil islohotlar jarayoni haqida turkum materiallar tayyorlashga qiziqish bildirgan taniqli jurnalistlari va blogerlari uchun qator press-turlar tashkil etish jarayonida bevosita ishtirok etadi.

Tashkiliy ishlar va safar oldidan o‘tkaziladigan muloqotlar chog‘ida qalam ahli vakillariga odatda bunday maslahat beriladi: “Sizlardan hech qanday alohida munosabat yoki maqtovlardan iborat maxsus maqolalarni kutmaymiz. Mamlakatimizga borib, o‘zgarishlar ko‘lami bilan yaqindan tanishib, oddiy insonlar, tadbirkorlar va turli soha vakillari bilan ochiq suhbatlar o‘tkazib, o‘zingizning xolis fikringizni yetkazsangiz, biz uchun shuning o‘zi yetarli”.

Ijodkorlarning bu samimiy yondashuvdan ruhlanib, katta ishtiyoq bilan yo‘lga chiqqanlariga ko‘p bor guvoh bo‘lganmiz. O‘zbekiston safaridan qaytgach, muayyan muddat o‘tib muxbirlarning aksaridan “Men mamlakatingizni sevib qoldim! Hozir oila a’zolarim, yaqinlarim va barcha tanishlarimga O‘zbekistonga albatta sayohat qilishni tavsiya etyapman”, degan iliq so‘zlarni eshitganimizda, boshimiz osmonga yetardi.

Quyida Hindistonning eng yoshi ulug‘, omma-bop va yetakchi “The Hindu” gazetasining taniqli xalqaro sharhlovchisi Stenli Jonining so‘zlarini e’tiboringizga havola qilaymiz. U O‘zbekistonga ijodiy safari va undan olgan unutilmas taassurotlari haqida to‘liqlanib yozib, jumladan, quyidagi fikrlarni bildirgan:

“O‘zbekistonda temir yo‘l qatnovi juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Buxoro Toshkentdan taxminan

570 kilometr uzoqda joylashgan. Yuqori tezlikdagi poyezdda bu masofa to‘rt soatdan kamroq vaqt ichida bosib o‘tiladi.

Men Toshkentda bir tanish diplomatning o‘g‘liga bu masofa ish joyim bilan onam yashaydigan uy o‘rtasidagi masofa bilan teng ekanini, biroq onamning huzuriga yetib olishim uchun tungi poyezdda 10 soat vaqt sarflashimni aytdim.

U buni eshitib hayron bo‘lganini bildirdi, chunki uning tasavvuridagi Hindiston dunyo iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida boshqacharoq edi.

“Mening ham O‘zbekiston haqidagi tasavvurim bu yerga kelguninga qadar butunlay boshqacha edi”, deb qo‘ydim o‘zimga o‘zim”.

Bir qarashda xorijlik jurnalning bu so‘zlari oddiy yo‘l taassurotdik tuyulishi mumkin. Ammo ushbu fikrlar zaminida davlatimizning iqtisodiy qudrati, infratuzilma sohasidagi islohotlarning xalqaro e’tirofi mujassam.

Tashqi siyosat va iqtisodiy diplomatiya tili bilan aytganda, o‘zbekistonliklar va yurtimiz mehmonlari uchun oddiy hol bo‘lib ulgurigan zamonaviy qulayliklar, rivojlangan va xavfsiz transport tizimi, tezkor logistika har qanday xorijlik investor va sayyoh uchun mamlakatning jozibadorligini belgilovchi eng bosh omillardan biridir. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Xivadek tarixiy shaharlarni bog‘lagan yuqori tezlikdagi temir yo‘llar bugungi yangilanayotgan O‘zbekistonning shiddati va taraqqiyot sur‘ati timsolidir.

Bu kabi maqolalar xorij jamiyatida yurtimiz haqida xolis fikr shakllantirib, iqtisodiy hamkorlikka, yangi investitsiyalar oqimiga va turizm rivojiga to‘g‘ridan to‘g‘ri yo‘l ochadi. Eng muhimi, masofalarni yaqin qilgan, ko‘ngillarni birlashtirgan bunday ijobiy o‘zgarishlar nafaqat yurtdoshlarimiz kundalik hayotiga qulaylik olib kirmogda, balki Vatanimiz mustaqilligining iqtisodiy poydevorini yanada mustahkamlash



4 JARAYON

2026-yil 23-iyul, 148-son

Abdushukur HAMZAYEV,
O'zbekiston Ekologik partiyasining
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi
fraksiyasi rahbari

Prezidentimiz raisligida 21-iyul kuni hududlar va tarmoqlarda o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha joriy yilning birinchi yarmida erishilgan natijalar va yil yakunigacha amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishi mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida alohida ahamiyat kasb etadi.

Unda iqtisodiy o'sish sur'atlarini yanada jadallashirish, hududlar va tarmoqlarda mavjud ichki imkoniyatlarni to'liq ishga solish, aholi farovonligini oshirish hamda har bir rahbarning shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirishga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berildi.

Yil boshidan yurtimiz iqtisodiyoti 8,5 foiz o'sgani, sanoatda 8 foiz, xizmatlar sohasida 16,9 foiz, qurilishda 13,8 foiz va qishloq xo'jaligida 4,7 foizli o'sish ta'minlangani islohotlarning salmoqli natijasidir. Investitsiya hajmi 28 milliard dollarga, eksport ko'rsatkichi 14,4 milliard dollarga yetgani, nufuzli xalqaro reyting agentliklari tomonidan O'zbekiston suveren kredit reytingi yaxshilangani mamlakatimiz iqtisodiyotiga ishonch tobora mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Biroq davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, iqtisodiy ko'rsatkichlar faqat hisobotlardagi raqamlar bo'lib qolmasligi kerak. Ular, eng avvalo, odamlarning kundalik hayotida, daromadida, yashash sharoitida, mahallalar obodligida, tadbirkorlik muhitida va aholining ertangi kunga ishonchida namoyon bo'lishi shart. Har bir vazir, hokim va tarmoq rahbari qanday yangi zaxiralarni aniqlagani, ularni ishga solish uchun qanday tizim yaratayotgani va yil yakunigacha qanday aniq natijaga erishishini ko'rsata olishi lozim.

Yig'ilishda mahallalardagi muammolarni hal etish, aholi uchun munosib yashash muhitini yaratish va "mahalla yetiligi" faoliyatini yangicha tashkil qilish bo'yicha belgilangan vazifalarni to'liq qo'llab-quvvatlaymiz. "Dolzab 40 kunlik" doirasida eng og'ir 2 mingga mahallada elektr energiyasi, tabiiy gaz, yo'l va ichimlik suv bilan bog'liq masalalarni hal qilish bo'yicha hokimlarning shaxsiy javobgarligi belgilangani joylardagi muammolarni manzilli bartaraf etishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, 8992 ta mahallada ko'cha va xonadonlarni obodonlashtirish, daraxt va ko'chatlar ekish, ariqlarni toza saqlash bo'yicha aniq majburiyatlar yuklatilgani partiyamizning dasturiy maqsadlariga to'liq hamohangdir. Ammo bu vazifalarni faqat mavsumiy hashar yoki qisqa



O'zbekiston uchun strategik maqsad ko'proq mahsulot eksport qilish bilan birga "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" degan tushunchani jahon bozorida sifat, ishonch va raqobat belgisiga aylantirish.

Munosabat

8,5 foizlik iqtisodiy o'sish ortida ishlayotgan korxonalar, yangi loyihalar, yaratilgan ish o'rinlari, tadbirkorlarning izlanishi va mamlakatning yangi imkoniyatlar sari harakati mujassam.

BUGUNGI IMKONIYAT – ERTANGI QUDRAT MANBAI

Boshlanishi 1-betda

Iqtisodiyotda o'sish sur'atini saqlab qolish uchun faqat yangi rejalar tuzishning o'zi kifoya qilmaydi. Eng katta imkoniyat ko'pincha mavjud salohiyat ichida yashirin bo'ladi. Bir korxona to'liq quvvatda ishlasa, o'nlab odamlar daromad oladi, yuzlab oilalarning turmushiga ta'sir qiladi. Bir ishlab chiqarish yo'nalishi to'xtasa, butun iqtisodiy zanjirda seziladi.

Bugun iqtisodiyot oldida turgan asosiy vazifalardan biri ham shu: mavjud imkoniyatlarni harakatga keltirish. Chunki jahon bozorida raqobat keskinlashib, savdo yo'llari o'zgarib, tashqi talab tez yangilanayotgan bir paytda har bir korxonaning barqaror ishlashi mamlakat iqtisodiy qudratiga ta'sir ko'rsatadi.

Tadbirkor uchun bugungi kun savoli oddiy: ishlab chiqargan mahsulotini qayerga va qanday shartlarda olib chiqadi? Chunki dunyo bozorida xaridor uchun kurash ketmoqda. Bir tomonda sifat va narx bo'lsa, ikkinchi tomonda vaqt, logistika va ortiqcha xarajatlar masalasi turibdi.

Yig'ilishda eksportchilar zimmasidagi ortiqcha to'lovlar, yig'imlar va ma'muriy yuklamalarni kamaytirish masalasiga e'tibor qaratilgani ham shu nuqtayi nazardan muhim. Chunki tashqi bozorga chiqishga harakat qilayotgan korxona har bir xarajatni hisoblaydi. Ba'zan katta imkoniyat kichik to'siq ortida qolib ketishi mumkin.

Iqtisodiyotda yana bir muhim masala ishlamayotgan quvvatlarni qayta ishga tushirishdir. Yig'ilishda ayrim to'qimachilik korxonalarini faoliyati to'xtab qolgan sababli 5 trillion so'mlik mahsulot va 400 million dollarlik eksport imkoniyatidan foydalanilmayotgani qayd etildi. Bu bozorga chiqmagan mahsulot, ishga

Chunki dunyo bozorida eng katta qiymat ko'p ishlab chiqarilgan mahsulotdan ko'ra odamlar ishonadigan nomda mujassam.

Iqtisodiyotning kuchliligi faqat eksport hajmi yoki tashqi bozorlardagi muvaffaqiyat bilan o'lchanmaydi. Mamlakat salohiyati qiyin sharoitlarda ham ichki ehtiyojlarni ta'minlay olishi, strategik zaxiralarni shakllantira bilishi bilan ham namoyon bo'ladi. Zero, oziq-ovqat masalasi jamiyat barqarorligi va iqtisodiy mustaqillikning asosiy omillaridan biridir.

Shu ma'noda, yig'ilishda qishloq xo'jaligi, ayniqsa, chorvachilik sohasidagi mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish natijalari sohadagi haqiqiy holatni ochib berib, qaysi yo'nalishlarda qo'shimcha choralar zarurligini aniq ko'rsatadi.

Chorvachilikka qo'shimcha mablag'lar yo'naltirilishi, yil yakuniga qadar 100 ming bosh qoramol va 150 ming bosh qo'y-echki olib kelish vazifasi belgilanishi ichki bozor ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan amaliy choralardan biri hisoblanadi. Ammo masalaning mazmuni faqat chorva sonini ko'paytirish bilan cheklanmaydi. Asosiy maqsad mahsuldorlikni oshirish, zamonaviy parvarish usullarini joriy etish, fermer mehnatining samarasini ko'paytirish va sohani raqobatbardosh ishlab chiqarish tarmog'iga aylantirishdir.

Qishloqdagi har bir xo'jalik hudud iqtisodiyotining bir bo'g'ini hisoblanadi. Bir fermerning faoliyati ortida ish o'rinlari, aholi daromadi va ichki bozor ta'minoti mujassam. Shu sababli agrar sohadagi har qanday o'zgarish mamlakat iqtisodiyotining umumiy harakatiga ta'sir ko'rsatadi.

Oziq-ovqat xavfsizligida yana bir muhim masala yetishtirilgan mahsulotni saqlash va uni iste'molchiga ega 340 ta sovitkichli omborni ishga tushirish bo'yicha belgilangan vazifalar katta ahamiyatga ega. Bu nafaqat mahsulot yo'qotilishini kamaytiradi, balki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlaydi, qayta ishlash sanoatini rivojlantiradi va qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni oshiradi.

Agrar sohaning kelajagi qancha hosil olinishidan tashqari, uni qanday saqlash, qayta ishlash va yuqori qiymat asosida bozorga chiqara olish bilan belgilanadi. Dehqon yerdan hosil oladi, iqtisodiyot esa ana shu hosildan qiymat yaratgandagina yutadi.

8,5 foizlik iqtisodiy o'sish ortida ishlayotgan korxonalar, yangi loyihalar, yaratilgan ish o'rinlari, tadbirkorlarning izlanishi va mamlakatning yangi imkoniyatlar sari harakat muajssam. Ammo har qanday natijaning qiymati uni kelajak taraqqiyoti uchun qanchalik mustahkam poydevorga aylantira olishi bilan belgilanadi.

Iqtisodiyotda eng katta boylik foydalanilmagan imkoniyatlarni ko'ra bilish va ularni harakatga keltira olishdir. Ishlamayotgan korxonada ham, yerda ham imkoniyat bor, tadbirkor tashabbusida ham, inson salohiyatida ham katta kuch mujassam. Masala ana shu imkoniyat va kuchni to'g'ri yo'naltirish, har bir resursni natijaga aylantirishda.

Bugun dunyoda raqobat tobora kuchayib, mamlakatlar nafaqat mahsulot, balki g'oya, sifat va ishonch uchun kurashmoqda. Shunday sharoitda yurtimiz oldidagi eng muhim vazifa iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlash bilan birga uning mazmunini boyitish, har bir sohada yangi qiymat yaratish va inson manfaatini taraqqiyotning bosh mezoniga aylantirishdir.

Tadbirkorga berilgan erkinlik, ishga tushirilgan har bir korxona, tashqi bozorga chiqqan har bir milliy brend, saqlangan har bir tonna mahsulot mamlakat iqtisodiy qudratining yangi zarrasi hisoblanadi. Chunki katta taraqqiyot minglab kichik harakatlar, aniq qorollar va mas'uliyatli yondashuvlar natijasida shakllanadi.

Xalqimizda "tomchi tosh teshar" degan hikmat bor. Iqtisodiyotda ham har bir islohot, har bir tashabbus va har bir samarali qaror vaqt o'tishi bilan katta o'zgarishlarga aylanadi. Bugungi vazifa erishilgan natijalar bilan cheklanib qolmasdan, mavjud imkoniyatlarni yanada kengaytirish, iqtisodiyotni yangi o'sish nuqtalari bilan boyitish va yurtimizning jahon bozorida o'rini yanada mustahkamlashdan iborat.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

2026-yil 23-iyul, 148-son

6

YANGI O‘ZBEKISTON

Yuz.uz News

Yuz.uz News

Kino san’ati

GRAN AMIR Y DONA MARIA

MA’NAVIY YAQINLIK VA IJODIY HAMJIHATLIK NAMUNASI



Shuhrat HAYITOV,
Kinematografiya agentligi
boshqarma boshlig'i, filologiya
fanlari doktori

Issiqko‘lga xush kelibsiz!

Har safarning o‘z manzili, har manziling esa inson qalbidagi qoladigan xotirasi bo‘ladi. Shunday manzillar borki, u yerdan faqat suratlar yoki esdalik sovg‘alar bilan emas, yangi fikrlar, yangi g‘oyalar va katta taassurotlar bilan qaytasiz. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlarning Qirg‘iz Respublikasining Issiqko‘l viloyatida o‘tkazilgan xalqaro kinofestivali ana shunday unutilmas anjumanlardan biri bo‘ladi.

Issiqko‘l... Chingiz Aytmatov uni “Qirg‘iz dunyosining mangu qo‘shig‘i” deb atagan. Afsonaviy ko‘l asrlar davomida savdogarlar, sayyohlar, olimlar va adiblarni o‘ziga maftun etib kelgan. Bu maskanga qadam qo‘ygan har bir inson, avvalo, tabiatning buyukligi oldida hayratga tushadi. Bir tomondan osmon bilan tutashib kergandek tuyuladigan moviy suvlar, ikkinchi tomonda esa qorli Tyanshan tog‘lari yastanib yotibdi...

Bu safar Issiqko‘l butunlay boshqa bir ma‘noda jahon nigohini o‘ziga qaratdi. Cho‘lponota shahri bir necha kun davomida kino san’atining xalqaro markaziga aylandi. SHHTning 25 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan mazkur xalqaro kinofestival turli mamlakat vakillarini bir sahna atrofida jamladi. Mezbonlar mehmonlarni “Issiqko‘lga xush kelibsiz!”, deya kutib oldi.

O‘zbekiston, Qozog‘iston, Xitoy, Rossiya, Eron, Tojikiston, Belarus va boshqa davlatlardan tashrif buyurgan rejissyor, ssenarist, operator, bastakor, aktyor va kinoshunoslar uchun bu festival shunchaki ijodiy tanlov emas, tajriba almashish, do‘stlik rishtalarini bog‘lash va kino orqali xalqlarni yanada yaqinlashtirish tadbiri bo‘ladi.

Festival arafasidayoq Cho‘lponota ko‘chalarida bayramona muhit hukm sura boshlagan edi. Turli davlatlarning hilpirab turgan bayroqlari, mehmonlarning samimiy tabassumlari va turli tillardagi suhbatlari shaharga o‘ziga xos joziba bag‘ishlardi. Kino haqidagi bahslar, yangi loyihalar xususidagi fikrlar, ijodkorlarning ilk uchrashuvlari festivalning nufuzli anjuman ekanini ko‘rsatib turardi.

“Ruh Ordo”da boshlangan bayram

Festivalning ochilish marosimi buyuk qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatov nomidagi “Ruh Ordo” madaniy markazida bo‘lib o‘tdi. Ushbu maskanning tanlanishida ham chuqur ramziy ma‘no bor. Ulug‘ adib asarlari inson qalbi, tarix va ma‘naviyat haqida so‘zlaydi. Kino san’ati ham xuddi shunday ezuq maqsadga — insonni o‘ylashga, anglashga va his qilishga undaydi.

Anjuman milliy kuylar va raqslar bilan boshlandi. Turli mamlakatlar delegatsiyalari birin-ketin taklif etilgan ekan, zalda o‘tirgan har bir ishtirokchi festivalning asosiy g‘oyasi — madaniyatlar muloqoti va xalqlar do‘stligini yanada teranroq his qildi.

O‘zbekistonda kino san’ati yuqori darajaga ko‘tarilishi kino orqali xalqimizning tarixiy xotirasi qayta uyg‘onishiga sabab bo‘lmoqda. Shu kunlarda “Tirik tarix” dasturidan o‘rin olgan “Yulduzlar shu‘lasi: Jomiy va Navoiy”, “Buxoro marvaridi” va “Fayzulla Xo‘jayev” filmlarining yakuniga yetkazilgani quvonarlidir.

MA’NAVIY YAQINLIK VA IJODIY HAMJIHATLIK NAMUNASI

O‘zbekiston delegatsiyasi ham katta qiziqish bilan kutib olindi. Festival dasturi bilan tanishar ekanmiz, uning mazmunan naqadar boy ekaniga yana bir bor ishonch hosil qildik. Bir necha kun davomida filmlar namoyishi, ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari, davra suhbatlari, ishbilarmonlik muloqotlari hamda madaniy sayohatlar rejalashtirilgan edi.

Ochilish marosimidan keyin delegatsiyalar o‘rtasidagi dastlabki suhbatlar boshlandi. Kinoshunoslar filmlar haqida fikr almashar, rejissyorlar yangi loyihalar yuzasidan muloqot qilar, yoshi ijodkorlar esa o‘zlari uchun katta tajriba maktabiga aylangan muhitdan bahramand bo‘lardi.

Suhbatlar chog‘ida O‘zbekistonda milliy kinematografiyani rivojlantirish, tarixiy filmlar yaratish va kino infratuzilmasini mustahkamlashga qaratilgan sa‘y-harakatlar katta qiziqish uyg‘otdi. Ayniqsa, “Tirik tarix” turkumi doirasida ekran yuzini ko‘rayotgan asarlar haqidagi ma‘lumotlar ko‘pchilikning e‘tiborini tortdi.

Kechga yaqin Issiqko‘l sohili ana o‘zining sokin qiyofasiga qaytdi. Ammo festival ishtirokchilari qalbida ertangi namoyishlarga bo‘lgan intiqlik tobora ortib borardi. Chunki navbatda turli mamlakatlarning filmlari qatorida O‘zbekistonning “Tirik tarix” dasturi asosida yaratilgan va katta qiziqish bilan kutilayotgan “Ulug‘ Amir va Donna Mariya” filmi namoyishi ham kutib turardi.

Ekranaga ko‘chgan tarix

Festivalning uchinchi kuni o‘tkazilgan va hamma alohida qiziqish bilan kutgan namoyishlardan biri O‘zbekiston milliy kinematografiyasi taqdimoti bo‘ladi. Bu taqdimot festivalda ishtirok etayotgan ko‘plab xorijlik kinoijodkorlar uchun yangilik edi. Sababi keyingi yillarda O‘zbekiston kinematografiyasida tarixiy mavzuda yaratilayotgan filmlar xalqaro kino maydonida tobora ko‘proq e‘tirof etila boshlandi.

Ayniqsa, Prezidentimizning madaniyat va san‘at sohasiga qaratayotgan yuksak e‘tibori, milliy kinematografiyani yangi bosqichga olib chiqishga oid farmon hamda qarorlari, tarixiy



merosimizni kino orqali targ‘ib qilish borasidagi tashabbuslari xalqaro kino jamoatchiligi tomonidan katta qiziqish bilan kuzatilayotgani suhbatlar davomida ko‘p bor tilga olindi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 5-iyundagi “Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag‘ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Tirik tarix” dasturi doirasida 21 ta badiiy va 33 ta badiiy-publististik film, jami 54 ta kinoasar yaratilmoqda. Ular orasida “Bahodir Yalango‘sh”, “Ajiniyoz”, “Maxtumquli Firog‘iy”, “Ulug‘ Amir va Donna Mariya”, “O‘zbek arsloni” (“Kazbek”) kabi filmlar allaqachon tomoshabinlar va kino mutaxassislari e‘tirofiga sazovor bo‘ladi.

Xususan, “Maxtumquli Firog‘iy” filmi dunyoning yigimadan ortiq mamlakatida namoyish etilib, qator xalqaro mukofotlarni qo‘lga



kiritti. Jumladan, Turkmanistonning Ashxobod shahrida o‘tkazilgan Qo‘rqut ota IV xalqaro kinofestivalida “Eng yaxshi film” nominatsiyasi bo‘yicha oliy sovringa munosib deb topildi. Shuningdek, Turkiyada o‘tkazilgan II Turon xalqaro kinofestivalida “Eng yaxshi o‘zbek filmi” sifatida taqdirlandi. Qozon xalqaro kinofestivali, Londonda o‘tkazilgan Yevroosiyo ijodiy gildiyasi kinofestivali hamda Barcelona shahridagi Osiyo filmlari xalqaro kinofestivalida ham yuqori baholandi.

“Bahodir Yalango‘sh” filmi esa “Oltin Humo — 2024” milliy kinomukofotining “Eng yaxshi film” nominatsiyasini oldi. Bu film orqali tomoshabin birinchi marta XVII asr Movarounnahrining siyosiy va madaniy muhitini, Samarqandning qayta yuksalish jarayonlarini badiiy talqidda anglash imkoniga ega bo‘ladi. Film faqat tarixiy shaxs haqida hikoya qilish bilan cheklanmaydi. U milliy tarixiy kinematografiyaning yangi bosqichga ko‘tarilishini anglatadi. “Bahodir Yalango‘sh” yosh avlodda milliy merosga hurmat va tarixiy shaxslarga qiziqishni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bu asar o‘zbek tarixiy kinosisida texnik va badiiy yangilanish namunasi hisoblanadi. Zamonaviy vizual effektlar, virtual pavilyon texnologiyalari va katta ko‘lamli sahnalar filmling tomoshabopligini oshirib, milliy kinoni xalqaro



standartlarga yaqinlashtirishga qaratilgan muhim qadam bo‘ladi.

O‘zbekistonda kino san’ati yuqori darajaga ko‘tarilishi kino orqali xalqimizning tarixiy xotirasi qayta uyg‘onishiga sabab bo‘lmoqda. Shu kunlarda “Tirik tarix” dasturidan o‘rin olgan “Yulduzlar shu‘lasi: Jomiy va Navoiy”, “Buxoro marvaridi” va “Fayzulla Xo‘jayev” filmlarining yakuniga yetkazilgani quvonarlidir.

Issiqko‘l festivali dasturidan o‘rin olgan “Ulug‘ Amir va Donna Mariya” filmi ana shu loyihaning munosib namunasi sifatida namoyish etildi. Filmling asosida tanilgi adib Xayriddin Sultonning chuqur tarixiy izlanishlariga tayangan ss